

**DAVR YARATGAN SHAXSIYAT YOXUD O‘ZLIKNI ANGLASH  
MASHAQQATI. (Shoyim Bo‘tayeovning “Sho‘rodan qolgan odamlar” )qissasi  
misolida**

*JDPI birinchi bosqich magistranti*

*Shomurodov San‘at*

**Annotatsiya.** Mustaqillik davri nasrida sho‘rolar davri kishisining badiiy ummulashma obrazi aks etgan talaygina asarlar yaratilgan. Xususan, Shoyim Bo‘tayeovning “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasida sobiq ittifoq davri kishisining tafakkur olami manzaralari, insoniy sezimlari, ko‘ngil kechmishlari yozuvchi ijodiy laboratoriyasida mahorat bilan ochib berilgan. Ushbu maqolada yuqoridagi mulohazalar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar.** *Badiiy umumlashma obraz, ijodiy laboratoriya, syujet chizig‘i, obraz psixologiyasi, yo‘qatilgan avlod.*

**Аннотация.** Проза периода независимости содержит большое количество произведений, изображающих художественное обобщение советской эпохи. В частности, в повести Шойима Бутаева «Люди, уехавшие из Советского Союза» в творческой лаборатории писателя умело раскрываются взгляды бывшего Советского Союза, человеческие чувства, прошлое. В этой статье обсуждаются приведенные выше соображения.

**Ключевые слова.** *Художественное обобщение образа, творческая лаборатория, сюжетная линия, психология образа, потерянное поколение.*

**Annotation.** The prose of the independence period contains a large number of works depicting the artistic generalization of the Soviet era. In particular, in the story "People left from the Soviet Union" by Shoyim Butaev, the views of the former Soviet Union, the human feelings, the past are skillfully revealed in the creative laboratory of the writer. This article discusses the above considerations.

**Key words.** *Artistic generalization of image, creative laboratory, plot line, image psychology, lost generation.*

“Qafasda tug‘ilgan qushlar uchishni kasallik deb hisoblashadi”.

Alexandro Jodorovski.

Insoniyat hayotining mohiyati azal-azaldan jamiyat va undagi qarashlar, g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Biz qaysidir ma’noda o‘sha qaysidir mafkuraning g‘oyalariga ergashamiz va o‘zimizning dunyoqarashimizga moslashtiramiz. Lekin inson e’tiqod qiladigan qarashlar vaqt o‘tgan sayin o‘z qadr qimmatini yo‘qotsachi? Yoki umuman milliy va umuminsoniy qarashlarga zid bo‘lsa, ular hech qachon amalga oshmaydigan daraja-da puch bo‘lib chiqsa-da inson o‘z e’tiqodini o‘zgartirmasa, ustiga – ustak buni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turgan bo‘lsa. Ana shunday insonlar obrazi Shoyim Bo‘tayevning “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasidagi “Nazoratchi” obrazida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qissa qahramoni bir paytlar kommunistik mafkuraga sadoqat bilan xizmat qilishga qasamyod qilgan hatto bu yo‘lda o‘z ismini-da o‘zgartirgan shaxs hisoblanadi. U o‘z kasbini hayotining mazmuniga aylantirgan va har qanday narsadan ustun qo‘yadigan insondir, hatto oilasidan-da. Uning ongi shuuri shunchalik darajada zang bosganki, u hamma narsadan har qanday shaxsdan shubha qiladigan, risoladagidek fikrlash qobiliyatidan mosuvo bo‘lgan ma’naviyati quruqshagan insonlarning yig‘ma obrazi hisoblanadi. Asarning syujetiga e’tibor beradigan bo‘lsak, nazoratchining ham qavm – qarindoshi borligi, lekin aka – uka o‘rtasida yaxshigina janjal bo‘lganligi tufayli ular yuz ko‘rmas bo‘lib ketganligi, butun qishloq ahli qaysi uyda notinchlik yoki ko‘ngilsiz voqea o‘tsa, ularni namuna qilib ko‘rsatadi. Yoki nazoratchi o‘g‘lining bir og‘iz gapiga qattiq arazlab undan nafratlanib yurishi yoki xotinini urib qo‘rqq qilib qo‘yganligi, bu oilada o‘zbekona qadriyatlarning darz ketganligidan dalolat beradi. Nazoratchining kasbiga e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘z xarakteriga mos ravishda qamoqxona qorovuli. Endi asardagi quyidagi parchaga e’tibor bering: “Nazoratchi har gal qamoqxona darvozasidan chiqqandanda tevarak-atrofga gumonsiragandek qarar, emin-erkin, o‘z xohishicha yurgan odamlarga xavfsirab

nazar tashlar, ularniyam o‘zi qo‘riqlaydigan kameralarda o‘tirishganini tasavvur etgachgina ko‘ngli tinchirdi. Garchi hammayoqda osoyishtalik-xotirjamlik bo‘lsa–da, yo‘lda ketayotgan biron odamning aft-angoriga, yurish turishiga, kiygan kiyimiga tuyqusdan uzoq tikilib qolar, bu kishi qamoqda emasmidi, bebiliski qochib qolmadimikan, deya o‘ylay boshlardi. Aytaylik, biron-bir to‘y-marakadami, yig‘indami tanishgan kishisini keyinchalik ko‘rib qolsa, u qachon qaysi jinoyat bilab qamalib chiqqandi deya o‘ylay boshlar, boshi qotar; ba’zi paytlarda hatto so‘rashdan ham tortinmasdi. Shu bois, u haqda eshitib bilganlar, uni ko‘rib bilganlar tanishishdan bezor, o‘zlarini ming chaqirim olisda olib qochib yurishardi.”<sup>1</sup> Yuqoridagi tasvirlar nazoratchining qanday tafakkurdagi shaxs ekanligini, tafakkur olami, insonlarga va jamiyatga bo‘lgan munosabatini ochiqalaydi. Bunday toifadagi shaxslar ezgulik kabi insoniy tuyg‘ulardan mahrum ekanligini qissani o‘qish davomida ilg‘ab olishimiz mumkin. “Yozuvchi “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasida aka-ukalarning xudbinligi, beoqibatliklari va hayotdagi fojiasini tasvirlash uchun o‘ziga xos syujetdan foydalanadi. Asarning dastlabki qismidayoq, adib muallif siymosida o‘zining munosabatini bildirib o‘tadi. Asarning hayotiy haqiqati shunda ediki, o‘z kechasini anglamagan, “olis dunyolar nasimlaridan” bexabar insonning taqdiri qanday bo‘lishi, fojialar girdobiga tushishi, ayniqsa o‘zining fojiasini anglab yetmasligini asardagi qahramonlar nutqi orqali tasvirlash imkoni yo‘q, lekin asardagi Nazoratchi obrazi psixologiyasi orqali bu jarayon mahorat bilan ochib berilgan.”<sup>2</sup>

Bunday toifadagi insondan o‘zining jonday o‘g‘li hisoblagan Toshmurodni va do‘stlarini kechirishi mumkin bo‘lgan jinoyatini kechirish yo‘lidagi harakatni esa aslo kutish mumkin emasdi. To‘g‘ri, yosh o‘smirlar jinoyatga qo‘l urdi, ular qonun oldida javob berishlari kerak, nazoratchi nazdida ham bizning nazdimizda ham, lekin nazoratchi yashagan jamiyatda bundan-da katta jinoyatlar va qing‘ir-qiyshiq ishlar korrupsion yo‘llar orqali hal bo‘lib ketgan. Bu jarayon odatiy

---

<sup>1</sup> Shoyim Bo‘tayev “Sho‘rodan qolgan odamlar” qissasi. Ziyoz.uz com. 74.bet

<sup>2</sup> Shoyim Bo‘tayev qissalari taxlili. Saviya.uz.internet sayti manbasi

jarayon ham edi. Biroq bu kabi holatlarni qonun himoyachasi hisoblagan nazoratchi negadir koʻrmasdi yoki koʻrishni istamasdi.

Shaxs qarashlarining fojiasi shundaki, u nafaqat jamiyatga faqatgina qonunlar bilan qarashi, balki tabiat hodisalariga ham bu qonunda mumkinmi yoki mumkin emasmi degan qarashida va hech bir jarayonni tabiiy qabul qilolmasligidadir. Asardagi quyudagi tasvir buning yaqqol namunasi: “Qamoqxonada eshigidan uch – toʻrt qadam narida uyib qoʻyilgan qor ustida kimdir yoʻl – yoʻlakay tasodifdanmi, atay qilibmi, bir xovuch don sepib ketibdi. Bir gala kaptarlar oʻzlarni donga urishib, goh qorga botib ketishar, goh bir-birlari bilan choʻqishib qolishardi. Nazoratchi bu joyda kaptarlarning don talashishi qoidaga toʻgʻri keladimi, deganday bir zum xardamhayolroq boʻlib turdi. Yuqoridan bitta yarimta tekshiruvchi kelib qolishsa, bu xolni qanday baholasharkin deya oʻyladi. Xatto bundan boshliqni ogoh qilib qoʻyish lozimmi – lozimmasmi, - deb ikkilanib turgandi ichkaridan folbin navbatchi chiqib qoldi. Aytmoqchi komandirga uchrashdingizmi?

-Xa.

U, bu javobgayam eʼtibor bermay, xitob qildi:

-Ox –x, Maza!...

Shu mahal uning nigohi qor ustida don talashayotgan kaptarlarga tushib, yosh boladay quvonib ketdi”<sup>3</sup>.

Yuqoridagi tasvirda ikkita bir xil kasbda ishlaydigan ikki insonning tafakkur olamini koʻrib olishimiz mumkin. Ichkaridan chiqib kelgan folbin navbatchi bu tabiat hodisasidan bahra olib quvonib ketdi. Ularga hatto ichkaridan buxanka olib kelib oziqlantirdi ham, lekin Nazoratchi esa bu jarayondan baxramand boʻlish tugul, agar oʻzining ixtiyorida boʻlganda qushlarning nasibasi hisoblangan shu donni–da yedirmasdan uchirib yuborishi mumkin boʻlgan darajadagi qalbi quroqlashgan kishi edi. Ushbu asarni tahlilga tortgan adabiyotshunos Bahodir Karim yozuvchi uslubi haqida quyidagicha mulohaza yuritadi. “Shoyim Boʻtayev uslubida koʻpsoʻzlilik, piching, kinoya, yumor va ziddiyat uygʻunligida batafsillik

---

<sup>3</sup> Shoyim Boʻtayev “Shoʻrodan qolgan odamlar qissasi”. Ziyo.uz com. 90 .bet

ustuvor. “Sho‘rodan qolgan odamlar”da ham yozuvchi asosiy o‘zak voqelilikka qadar Nazoratchining psixologiyasini, tabiatini yorqin ochishgacha bo‘lgan sahifalarda juda ko‘p tafsilotlar yozadi. Nazoratchining kimligi, qanday odamligi, sho‘rolarga naqadar daxldorligi o‘z xizmat vazifasini bajaradigan hibsxona postidagi vaziyatda, kasbdoshlari, hibsxona boshlig‘i va Sunnat o‘g‘ri bilan bo‘lgan uzuq-yuluq muloqotlarida ochiladi. Yozuvchi uni kam so‘zlatadi, ko‘p o‘ylatadi. Asar davomida Nazoratchining laqmaligi, Amakining xudbinligi ochila boradi. Qissaning biror joyida na Nazoratchining na Amakining qulog‘iga azon aytib qo‘yilgan ismlar eslatiladi. Aslida ham, ularni ismi bilan aytish lozim ko‘rilmaydi. Shu nuqtai nazardan keying yillar qissachiligida ko‘zga tashlanayotgan ismsiz va tashqi qiyofasi aniq tasvirlanmayotgan qahramonlar, aniq bir syujet chizig‘ining yo‘qligi oddiy holga aylanib qoldi va bugungi kun o‘quvchisi bunga ko‘nikib ham bormoqda.”<sup>4</sup>

Darhaqiqat, ushbu qissasada ishtirok etuvchi qahramonlar ismi oshkor etilmaydi, yoki ijodkorning topilmalari bilan nomlanadiki, asarda ular tipologik obraz sifatida sobiq ittifoq davri shaxsining real obrazini ochib bergan. Ijodkorning badiiy niyati ham aslida shundan iborat edi.

Qissadagi Nazoratchi tipologiyasi haqida mulohazalarimizni davom ettiradigan bo‘lsak, asardagi Sunnat o‘g‘ri obrazi Nazoratchi bilan uchrashib qolishi ham bejiz emasdi. Chunki ikki shaxsning o‘zora suhbat jarayoni Cho‘yanboy Qulmanovning fojiaiy taqdiri haqida ketadi. Suhbat so‘nggida Nazoratchini ham shunday taqdir nasib qilishi mumkinligidan ogohlantiradi. Nazoratchi kabi insonlar nafaqat o‘zini, balki o‘zining yon atrofidagi insonlarni ham baxtsiz qiladi. Uning ayoli misolida bir umr ayollik baxti nimaligini bilmagan, hayotini hasrat–nadamatda o‘tkazgan umrining so‘nggi daqiqalarida farzand diydoriga to‘ymagan mushtipar ona timsoli mujassam.

Asarning yakunlanuvchi qismida yozuvchining ijodiy konsepsiyasi va asarning taffakkur mantig‘ini topganday bo‘lamiz:

“-Ota, yuring endi-i...

---

<sup>4</sup> Shoyim Bo‘tayev qissalari taxlili. Saviya.uz.com internet sayti manbasi

Nazoratchi chaqmoq urganday seskanib tushdi.

Ovoznimi, ovoz egasini qidirganday atrofga alangladi, yosh bolaga o'xshab qoldi. Keyin Toshmurodga ko'zi tushib negadir sarosimalaganday bo'ldi.

Qult etib yutundi. Qult etib yutundi-da

Xozir –ir -dedi itoatgo'ylik bilan va bu so'zni yana bir bor eshitib ko'rishni istayotganday takrorladi, -xozir o'g'lim...’’<sup>5</sup>

Nazaratchi, balki, umrida birinchi marotaba insonligini, otaligini his qilgandir. Lekin haqiqat adolat qaror topguncha ancha–muncha odamning beli sinadi deganlaridek nazoratchi kabi shaxslarning odamiy qiyofaga qaytguncha qanchadan – qancha o'ksik qalblar ( Toshmurod misolida), o'z fojiasini anglamagan insonlar, hamda ma'naviy jihatdan falajlangan jamiyat meros qoladi. Davr jarohatlarni davolash uchun esa ba'zan yillar kamlik qiladi.

Fikrimiz so'ngida shuni aytishimiz mumkinki, bu asar sho'ro jamiyati tarbiyalab bergan “yo'qotilgan avlod” obrazi ochib berilgan ,ularning umumlashma shaxsi gavdalantirilgan ajoyib yaratiqulardan biri. Rivojlangan jamiyat bunday shaxslarni qabul qila olmaydi va ular o'z o'rinlarini yangi avlodga bo'shatib beraveradi. Hayot esa o'z chizig'ida bir-tekis davom etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Shoyim Bo'tayev “Sho'rodan qolgan odamlar qissasi”. Ziyo.uz.sayti manbasi.
2. Shoyim Bo'tayev qissalari taxlili. Saviya.uz internet sayti manbasi.
3. Shoyim Bo'tayev qissalari taxlili. Saviya.uz internet sayti manbasi.

---

<sup>5</sup> Shoyim Bo'tayev qissalari taxlili. Saviya.uz. internet sayti manbasi

